



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2023-yil 18-oktabr, № 221 (8564)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON — XITOIY:

UMUMIY TARAQQIYOT VA RAVNAQQA ERISHISH YO'LIDAGI O'ZARO HAMKORLIK

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan Xitoy Xalq Respublikasida bo'lib turibdi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 17-oktabr kuni Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Zinpin bilan muzokaralar o'tkazdi.

O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasidagi do'stlik va har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida Prezidentimiz taklif va ko'rsatilayotgan samimiy qabul uchun Xitoy yetakchisiga minnatdorlik bildirdi.

O'zbekiston rahbari XZR Raisini Xitoy tashkil topgan kun hamda "Bir makon, bir yo'l" tashabbusining o'n yillik yubileyi bilan chin dildan qutladi.

"Makon va yo'l" tashabbusi qisqa tarixiy davr ichida umumiy taraqqiyot va ravnaqqa erishish yo'lidagi hamkorlik uchun muhim, inklyuziv va ochiq platformaga aylandi. XZR Raisining "Yashil ipak yo'li" tashabbusi ilk bor 2016-yilda O'zbekistonda bildirilgani chuqur ramziy ma'noga ega, — dedi mamlakatimiz yetakchisi.

O'zbekiston Xitoy bilan ko'p qirrali munosabatlarni yanada chuqurlashtirishga qat'iy intilishi alohida ta'kidlandi.

Har tomonlama strategik sheriklikni yangi davrda rivojlantirish bo'yicha besh yillik dastur amalga oshirilmogda.

O'zbekiston Prezidentining joriy yil may oyidagi Xitoyga davlat tashrifi davomida erishilgan kelishuvlar izchil bajarilayotgani, siyosiy muloqot mustahkamlanib, asosiy masalalar

borasida tomonlar bir-birini qo'llab-quvvatlayotgani alohida mamnuniyat bilan ta'kidlandi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik jadal rivojlanmogda.

Keyingi yillarda Xitoy investitsiyalari hajmi besh barobar, qo'shma korxonalar soni uch barobar ko'paydi. Joriy yil boshidan buyon o'zaro savdo hajmi 36 foizga oshdi. Yil yakunigacha ushbu ko'rsatkich 10 milliard dollardan oshishi kutilmogda.

Tovar ayirboshlashni yaqin besh yilda 20 milliard dollarga yetkazish uchun barcha asoslar borligi haqida yakdillik bildirildi.

Xitoy kompaniyalari va moliyaviy institutlari ishtirokida yuksak texnologiyalar, muqobil energetika, kimyo, mashinasozlik, metallurgiya, elektrotexnika tarmoqlarida, infratuzilmani modernizatsiya qilish va boshqa yo'nalishlarda bir qator yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmogda.

O'zbekiston yuqori qo'shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni birgalikda tashkil etish orqali yuqori texnologik loyihalarni ko'paytirishdan manfaatdorligi bildirildi.

Xitoyning yetakchi banklari va "Ipak yo'li" fondi bilan samarali hamkorlikka yuqori baho berildi.

Hududlararo aloqalar faollashgani qayd etildi. Yil boshidan O'zbekistonga Shinjon — Uyg'ur avtonom hududi, Shensi, Shandun, Szyansu va Szyansi muzofotlari delegatsiyalari tashrif buyurdi.

Xitoyning kambag'allikka qarshi kurashish tajribasini o'rganish va joriy etish borasida samarali tajriba almashish va amaliy hamkorlik qilishga alohida e'tibor qaratildi.

Barcha kelishuvlar ijrosining borishini ko'rib chiqish maqsadida Hukumatlararo qo'mitaning navbatdagi yig'ilishini o'tkazish taklif qilindi.

Yetakchilar madaniyat, ta'lim va turizm sohaslarida qizg'in hamkorlikni yuksak baholadilar. Xitoy 2023-yilni "Markaziy Osiyo va Xitoy xalqlari madaniyati va san'ati yili" deb e'lon qilish tashabbusini qo'llab-quvvatlagani uchun minnatdorlik bildirildi.

Yaqinda Xanchjou'dagi Ipak milliy muzeyida O'zbekistonning taqdimoti bo'lib o'tdi. Pekindagi "Gugun" saroyi muzeyida "Makon va yo'l" tashabbusi doirasidagi Arxeologik hamkorlik ko'rgazmasida tarixiy merosimiz ekspozitsiyasi tashkil etildi.

Oktyabr oyi oxirida O'zbekistonda Xitoy madaniyati kunlari, kelgusi yil bahorida esa Xitoyda O'zbekiston madaniyati kunlarini o'tkazish rejalashtirilgan.

O'zbekistonda, ayniqsa, yoshlar orasida xitoy tilini o'rganishga qiziqish ortib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Toshkent va Samarqanddagi Konfutsiy institutining samarali faoliyati bunga katta hissa qo'shmoqda. Xitoy tilini o'qitishni va yosh olimlar o'rtasidagi almashinuvni kengaytirish rejalari belgilab olindi.

O'zbekiston Prezidenti Toshkentda

Xitoyning yetakchi Sinxua universiteti va Pekin universiteti filiallarini ochishni taklif qildi.

Mintaqaviy kun tartibi va xalqaro siyosatning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashildi.

"Yagona Xitoy" siyosati hamda "uch yovuz kuch"ga qarshi kurashish borasidagi pozitsiya o'zgarmas ekani tasdiqlandi.

Uchrashuvda ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni qabul qilishga kelishib olindi.

Muzokaralar yakunida davlatimiz rahbari XZR Raisini tashrif bilan O'zbekistonga kelishga taklif etdi.

Uchrashuv har doimgidek ishonchli, ochiq va do'stona ruhda o'tdi.

Pekin shahridagi Xalq yig'inlari uyida "Bir makon, bir yo'l" uchinchi xalqaro forumida ishtirok etayotgan delegatsiyalar rahbarlarini rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va rafiqasini Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Zinpin va rafiqasi tantanali kutib oldi.

Marosimda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish, Rossiya Prezidenti Vladimir Putin, Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban, Pokiston Bosh vaziri vazifasini bajaruvchi Anvar ul-Haq Kakar, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov, qator

boshqa mamlakatlarning davlat va hukumatlar rahbarlari ham ishtirok etdi.

Mehmonlarga teatrlashtirilgan konsert dasturi taqdim etildi.

Davlatimiz rahbari Xitoyga amaliy tashrif doirasida Vyetnam Sotsialistik Respublikasi Prezidenti Vo Van Txiong bilan uchrashdi.

Ikki mamlakat o'rtasida, eng avvalo, savdo-iqtisodiy sohadagi o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Ta'kidlash joizki, Vyetnam O'zbekistonning Osiyo — Tinch okeani mintaqasidagi muhim hamkoridir. Keyingi yillarda turli darajalardagi muloqotlar faollashdi, o'zaro savdo hajmi va qo'shma korxonalar soni ortib bormogda. Qishloq xo'jaligi va baliqchilik sohaslarida loyihalar amalga oshirilmogda.

Yetakchi kompaniyalarimiz neft-gaz majmuasida, mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo, to'qimachilik, poyabzal, mebelsozlik, oziq-ovqat va boshqa tarmoqlarda, shu jumladan, maxsus iqtisodiy zonalar va industrial parklar doirasida kooperatsiyalar tashkil etish uchun imkoniyatlar mavjudligi qayd etildi.

Shuningdek, O'zbekiston va Vyetnam yetakchilari madaniyat, ta'lim va turizm sohaslarida almashinuvni rivojlantirish muhim ekanini ta'kidladilar.

O'zbekiston Prezidenti "Amer International" industrial-sanoat xoldingi raisi Van Veninni qabul qildi. Xitoyning yetakchi

konglomeratlaridan biri bo'lgan "Amer International" yuksak texnologiyalar, elektronika, yarimo'tkazgichlar sanoati, konchilik va qayta ishlash tarmoqlaridagi loyihalar bilan shug'ullanadi. Kompaniya "Fortune 500" global reytingiga kirgan. Xitoyda va uning tashqarisida umumiy qiymati 60 milliard dollardan ziyod bo'lgan loyihalarni amalga oshirmogda.

Van Venin O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar dasturi xorijiy, shu jumladan, Xitoy kompaniyalari uchun qulay sharoit yaratayotgani va keng imkoniyatlar ochayotganini ta'kidladi.

Kompaniya mamlakatimizga Markaziy Osiyo mintaqasidagi biznesining bosh yo'nalishi sifatida qarayotgani qayd etildi.

Misni chuqur qayta ishlash va undan yuqori qo'shilgan qiymatli innovatsion va xaridorgir mahsulotlar, shu jumladan, elektrotexnika, elektromobillar uchun akkumulyator batareyalari, mikroelektronika va yarimo'tkazgichlar ishlab chiqarish bo'yicha istiqbolli loyihalar muhokama qilindi.

"Amer International" kompaniyasi raisi Xorijiy investorlar kengashi faoliyatida ishtirok etishi, mamlakatimizda mintaqaviy ofis ochish hamda qo'shma innovatsion loyihalarni tezlashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni qabul qilish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Forumning asosiy tadbirlari 18-oktabr kuni bo'lib o'tadi.

O'za.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

Xitoy elchisi Yuy SZYUN:

YANGI O'ZBEKISTONNING YUTUQLARINI O'Z KO'ZIM BILAN KO'RIB TURIBMAN

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 17-18-oktabr kunlari Pekin shahrida bo'lib o'tadigan "Bir makon, bir yo'l" (BMBY) uchinchi xalqaro forumi tadbirlarida ishtirok etish uchun Xitoyga tashrifi munosabati bilan "Dunyo" AA muxbiri ushbu mamlakat elchisi Yuy Szyun bilan O'zbekiston — Xitoy hamkorligi, jumladan, "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi istiqbollari xususida suhbatlashdi.

Eksplyuziv intervyu

— So'nggi yillarda mamlakatlarimiz o'rtasidagi muloqot jadal rivojlanmogda. O'zbekiston va Xitoy rahbarlari o'rtasidagi munosabatlarda, ekspertlar ta'biri bilan aytganda, "kimyoviy bog'liqlik" bor. Ular o'tgan yili sentyabr oyida Samarqandda, may oyida esa Sian shahrida uchrashishdi. Mana endi yetakchilarimiz bir

yildan sal ko'proq vaqt ichida uchinchi marta uchrashmogda. Xitoyning O'zbekistondagi yangi elchisi sifatida bu jarayonlarni qanday baholaysiz?

— Aytganingizdek, XZR Raisi Si Zinpin va O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev so'nggi yillarda yaqin aloqalarni davom ettirib, chuqur do'stlik rishtalarini o'rnatgan holda yuqori darajadagi siyosiy o'zaro

ishonchga erishdilar. O'tgan yilning sentyabr oyida Rais Si Zinpin O'zbekistonga tarixiy davlat tashrifi bilan o'z ko'zim bilan ko'rib, mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik istiqbollari ulkan salohiyatga ega ekanini chuqur his qilyapman.

Prezident Shavkat Mirziyoyev "Bir makon, bir yo'l" uchinchi xalqaro forumida ishtirok etayotir. Tashrif davomida davlatlarimiz rahbarlarining uchrashuvi ham o'rin olgan. U o'zaro manfaatli hamkorlik yo'nalishlarini belgilab beradi. Xitoy O'zbekiston bilan oliy darajada erishilgan muhim kelishuvlarni sobitlik bilan amalga oshirish, tarixiy imkoniyatdan foydalanish va Xitoyning porloq kelajagini yaratuvchi "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi va Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini ilgari surishda davom etishga tayyor.

Men Xitoyning mamlakatingizdagi elchisi sifatida Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida yangi

O'zbekistonning milliy taraqqiyoti va qurilishi borasida erishilgan yutuqlarni o'z ko'zim bilan ko'rib, mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik istiqbollari ulkan salohiyatga ega ekanini chuqur his qilyapman.

Prezident Shavkat Mirziyoyev "Bir makon, bir yo'l" uchinchi xalqaro forumida ishtirok etayotir. Tashrif davomida davlatlarimiz rahbarlarining uchrashuvi ham o'rin olgan. U o'zaro manfaatli hamkorlik yo'nalishlarini belgilab beradi. Xitoy O'zbekiston bilan oliy darajada erishilgan muhim kelishuvlarni sobitlik bilan amalga oshirish, tarixiy imkoniyatdan foydalanish va Xitoyning porloq kelajagini yaratuvchi "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi va Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini ilgari surishda davom etishga tayyor.

Maxsus reportaj

ADOLATLI DUNYO KONSEPSIYASI YAGONA TAQDIRGA EGA INSONIYAT HAMJAMIYATINI YARATISH G'OYASI NIMAGA TAYANADI?

Eramizdan ikki yuz yil ilgari Xitoy imperatori U-di vakili — elchi Chjan Syan sayohatga o'tgan va bu sayohat insoniyat tamaddunida yangi davr boshlanishiga asos bo'lgan. Chegaralar hamda jug'rofiy to'siqlar orqali xalqlar o'rtasida savdo va madaniy aloqalar uchun yangi imkoniyatlar ochilgan.

"Osmonosti mamlakati"dan G'arbga qarab solingan yo'l Markaziy Osiyo orqali o'tgan. Savdo aloqalarining rivojlanishi bundan ikki ming yil avval Xitoyning mintaqamiz bilan noyob tarixiy voqealik sanalmish Buyuk Ipak yo'li orqali bog'lagan va u keyinchalik savdo, madaniy hamkorlik va do'stlik ko'prigiga aylangan.



Bilimning sehirli kuchi

Shu kunlarda Samarqandning qadimiy binolari, ko'cha va bozorlari turli xorijiy tillarda so'zlashayotgan sayyohlar bilan gavjum. Qadimiy va hamisha navqiron shahar turli qit'alarda davlatlardan kelgan mehmonlarning e'tiborini

o'ziga tortmogda. Keyingi paytda bu yerda xitoy tili ham tez-tez yangraydigan bo'ldi. Ya'ni afsonalardagi shahar siymosini o'zida mujassam etgan Samarqandga tashrif buyuruvchilar orasida "Osmonosti mamlakati" vakillarining ham soni ortib bormogda.



Xitoy elchisi Yuy SZYUN:

YANGI O'ZBEKISTONNING YUTUQLARINI O'Z KO'ZIM BILAN KO'RIB TURIBMAN



— "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi 2013-yilda Raisi Si Szinpingning Markaziy Osiyoga tashriifi chog'ida boshlangan edi. O'shandan buyon biz ushbu tashabbus doirasida o'zaro manfaatli asosda hamkorlik qilib kelmoqdamiz. Bu borada sizning fikringiz qanday?

— Markaziy Osiyo tashabbusi ilgari surilgan joy va amalga oshirish uchun asosiy mintaqadir. So'nggi o'n yil ichida BMBY tashabbusi doirasida Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari birgalikda xalqlarimiz farovonligi uchun xizmat qilgan bir qancha yirik loyihalarni amalga oshirdi. Xitoy uzoq yillardan buyon Markaziy Osiyo beshta davlatining asosiy savdo sherigi bo'lib kelmoqda. 2022-yilda Xitoy va Markaziy Osiyo o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 70 mlrd. dollardan oshdi. "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi tufayli Markaziy Osiyo davlatlari Sharqda dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo'ldi. Hozirgi paytda Xitoy — Markaziy Osiyo gaz quvuri va Xitoy — Qozog'iston neft quvuri barqaror ishlamoqda. Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston avtomobil yo'lining multimodal transport salohiyati doimiy ravishda ishga tushirilmoqda. Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'li loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan.

— "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi 2013-yilda Raisi Si Szinpingning Markaziy Osiyoga tashriifi chog'ida boshlangan edi. O'shandan buyon biz ushbu tashabbus doirasida o'zaro manfaatli asosda hamkorlik qilib kelmoqdamiz. Bu borada sizning fikringiz qanday?

— Markaziy Osiyo tashabbusi ilgari surilgan joy va amalga oshirish uchun asosiy mintaqadir. So'nggi o'n yil ichida BMBY tashabbusi doirasida Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari birgalikda xalqlarimiz farovonligi uchun xizmat qilgan bir qancha yirik loyihalarni amalga oshirdi. Xitoy uzoq yillardan buyon Markaziy Osiyo beshta davlatining asosiy savdo sherigi bo'lib kelmoqda. 2022-yilda Xitoy va Markaziy Osiyo o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 70 mlrd. dollardan oshdi. "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi tufayli Markaziy Osiyo davlatlari Sharqda dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo'ldi. Hozirgi paytda Xitoy — Markaziy Osiyo gaz quvuri va Xitoy — Qozog'iston neft quvuri barqaror ishlamoqda. Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston avtomobil yo'lining multimodal transport salohiyati doimiy ravishda ishga tushirilmoqda. Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'li loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan.

— O'zbekiston BMBY tashabbusining faol ishtirokchisi va foyda oluvchisi bo'lib, hamkorlikda samarali natijalarga erishdi. Shuningdek, Xitoy O'zbekistonning eng yirik savdo sherigi hisoblanadi. O'zbekiston statistik ma'lumotlariga ko'ra, joriy yilning yanvar — avgust oylarida mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi qariyb 8,3 mlrd. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 35,6 foizga oshgan. Ta'kidlash joizki, yil boshidan buyon ikki davlat o'rtasida elektromobillar savdosi keskin o'sdi. O'zbekistonga import qilinadigan elektromobillarning 90 foizi Xitoydan kelmoqda. Joriy yilda Toshkent shahri va boshqa viloyatlarda O'zbekiston shaharlarining g'ozal tashrif qog'oziga aylandigan 3 mingta yangi avtobus foydalanishga topshirildi.

Bugungi kunda Xitoy O'zbekistonga sarmoya kiritayotgan asosiy manba bo'lib, mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilgan Xitoy sarmoyasining umumiy hajmi 11 mlrd. AQSH dollaridan oshdi. Investitsiyaviy hamkorlik infratuzilma, kimyo sanoati, energika, suv xo'jaligi, transport, kommunikatsiya va boshqa sohalarni qamrab oladi. O'zbekiston tomoni ma'lumotlariga ko'ra, joriy yilning birinchi yarmida Xitoy respublikaning eng yirik sarmoyaviy hamkoriga aylandi. Xitoy yangi O'zbekistonda barpo etishda faol qatnashmoqda.

Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi an'anaviy do'stlik ikki davlat o'rtasidagi zamonaviy munosabatlarni rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi. 1992-yil 2-yanvarda O'zbekiston bilan diplomatik munosabatlar o'rnatishda Xitoy yetakchilik qildi. Har ikki davlat bir-birini hurmat qiladi, yaxshi qo'shnichilik va do'stona munosabatlarga ega, o'zaro manfaat va yordamga intiladi. O'rtamizda hech qanday muammo va nizolar yo'q, biz davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni namunasini yaratmoqda, deb o'ylayman.

Biz xalqaro muammolar bo'yicha o'xshash pozitsiya va qarashlarga egamiz, milliy voqeelikka mos ravishda rivojlanish yo'lidan borish huquqini qo'llab-quvvatlaymiz. Shuningdek, BMT va Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida faol hamkorlik olib boryapmiz, asosiy manfaatlariga

taalluqli masalalarda ham bir-birimizni qat'iy qo'llab-quvvatlaymiz.

O'zlarining chuqur tarixiy va boy madaniy merosi tufayli har ikki tomon ham davlat boshqaruvi sohasida bir xil qarashga ega. Xitoy O'zbekistonga yaxshi qo'shni, yaqin do'st va ishonchli hamkor, shuningdek, islohotlar, ochiqlik, milliy taraqqiyot va rivojlanish yo'lidagi sherik sifatida qaraydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Xitoy tajribasidan foydalanishda holda Sirdaryo viloyatini "Ilg'or innovatsiyalar hududi"ga aylantirish bo'yicha ko'rsatma berdi. Xitoy buni qadrlaydi va O'zbekiston bilan turli sohalarda hamkorlikni rivojlantirishga tayyor.

Bundan tashqari, ikki davlatning boy tarixiy-madaniy merosi ham ikki xalqning bir-birini yaqindan bilishi uchun yaxshi sharoit yaratmoqda. Ipak yo'lining Samarqand, Buxoro, Xiva kabi mashhur qadimiy shaharlari xitoylik sayyohlarning e'tiborini har doim o'ziga jalb etib kelgan. Ayni

iqtisodiyot, savdo va odamlar almashinuvi kabi turli sohalarda aloqalarni faol rivojlantirish maqsadida yaqin hamkorlik qilib kelmoqda. Xitoy O'zbekistonning SHHTga raislik davrida tashkilot rivojiga qo'shgan muhim hissasini yuqori baholaydi. O'tgan yilning sentyabr oyida bo'lib o'tgan Samarqand sammiti muvaffaqiyatli yakunlanib, yangi mintaqaviy va xalqaro tartibni barpo etish yo'lida yangi yo'lni boshlanishini belgilab berdi.

Keyingi qadam sifatida Xitoy SHHT doirasida O'zbekiston bilan munosabatlarni muvofiqlashtirish va hamkorlikni kuchaytirishga, milliy xavfsizlik va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga, taraqqiyot va tiklanishni rag'batlantirish yo'lida birgalikda ishlashga, shuningdek, barcha mamlakatlarda xalqlariga ko'proq foydalanib olib kelish uchun SHHTning mustahkam yagona hamjamiyatini barpo etishga tayyor.

— O'zbekiston Ipak yo'lidagi muhim davlat. Qadimgi Ipak yo'li 2000-yildan oshiq tarixga ega bo'lib, Xitoy va O'zbekistonni chambarchas bog'lab turadi. Ikkala tomon ham o'xshash tushuncha va madaniyatga hamda bir-biridan o'rganishlari kerak bo'lgan ko'plab sifatlarga ega.

— Mamlakatlarimiz o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya va boshqa sohalardagi aloqalar jadal rivojlanmoqda. O'zaro hamkorlikning muhim qismi bo'lgan madaniy-gumanitar jabhalardagi aloqalarga to'xtalib o'tmasdan ilojimiz yo'q. Bu boradagi hamkorlik rivoji haqida gapirib bersangiz. Va, umuman olganda, o'zaro hamkorlikning qaysi sohalarini eng istiqbolli deb hisoblaysiz?

— So'nggi yillarda ikki davlat o'rtasida ta'lim, madaniyat, arxeologiya, turizm, ommaviy axborot vositalari va boshqa sohalardagi hamkorlik chuqurlashib bormoqda. Ayniqsa, ikki davlat o'rtasida ta'lim sohasidagi sheriklik sur'ati tezlashdi. Toshkent va Samarqandda Konfutsiy institutlari ochildi. Ular xitoy tili bo'yicha 10 mingdan ortiq mutaxassislarni doimiy ravishda tayyorlaydi. Mamlakatda xitoy tili o'rganishga bo'lgan talab ham oshib bormoqda. O'z navbatida, Xitoyning ko'plab universitetlarida o'zbek tili kurslari va tadqiqot markazlari tashkil etilgan. Xitoy Samarqanddagi "Ipak yo'l" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining qurilishi va ekspluatatsiyasida faol ishtirok etmoqda. Tyanszin dengiz kasb-hunar kolleji va Toshkent davlat transport universiteti "LuBan Workshop" loyihasini O'zbekistonda faol ravishda ilgari surmoqda. O'tgan oy Shensi shahridagi ko'plab universitetlar O'zbekistonda oliy ta'lim ko'rgazmasini taqdim etgan bo'lsa, shu hafta Xitoy Xalq universiteti O'zbekiston Milliy universiteti bilan hamkorlik bitimini imzolaydi.

— Mamlakatlarimiz o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya va boshqa sohalardagi aloqalar jadal rivojlanmoqda. O'zaro hamkorlikning muhim qismi bo'lgan madaniy-gumanitar jabhalardagi aloqalarga to'xtalib o'tmasdan ilojimiz yo'q. Bu boradagi hamkorlik rivoji haqida gapirib bersangiz. Va, umuman olganda, o'zaro hamkorlikning qaysi sohalarini eng istiqbolli deb hisoblaysiz?

— So'nggi yillarda ikki davlat o'rtasida ta'lim, madaniyat, arxeologiya, turizm, ommaviy axborot vositalari va boshqa sohalardagi hamkorlik chuqurlashib bormoqda. Ayniqsa, ikki davlat o'rtasida ta'lim sohasidagi sheriklik sur'ati tezlashdi. Toshkent va Samarqandda Konfutsiy institutlari ochildi. Ular xitoy tili bo'yicha 10 mingdan ortiq mutaxassislarni doimiy ravishda tayyorlaydi. Mamlakatda xitoy tili o'rganishga bo'lgan talab ham oshib bormoqda. O'z navbatida, Xitoyning ko'plab universitetlarida o'zbek tili kurslari va tadqiqot markazlari tashkil etilgan. Xitoy Samarqanddagi "Ipak yo'l" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining qurilishi va ekspluatatsiyasida faol ishtirok etmoqda. Tyanszin dengiz kasb-hunar kolleji va Toshkent davlat transport universiteti "LuBan Workshop" loyihasini O'zbekistonda faol ravishda ilgari surmoqda. O'tgan oy Shensi shahridagi ko'plab universitetlar O'zbekistonda oliy ta'lim ko'rgazmasini taqdim etgan bo'lsa, shu hafta Xitoy Xalq universiteti O'zbekiston Milliy universiteti bilan hamkorlik bitimini imzolaydi.

— So'nggi yillarda ikki davlat o'rtasida ta'lim, madaniyat, arxeologiya, turizm, ommaviy axborot vositalari va boshqa sohalardagi hamkorlik chuqurlashib bormoqda. Ayniqsa, ikki davlat o'rtasida ta'lim sohasidagi sheriklik sur'ati tezlashdi. Toshkent va Samarqandda Konfutsiy institutlari ochildi. Ular xitoy tili bo'yicha 10 mingdan ortiq mutaxassislarni doimiy ravishda tayyorlaydi. Mamlakatda xitoy tili o'rganishga bo'lgan talab ham oshib bormoqda. O'z navbatida, Xitoyning ko'plab universitetlarida o'zbek tili kurslari va tadqiqot markazlari tashkil etilgan. Xitoy Samarqanddagi "Ipak yo'l" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining qurilishi va ekspluatatsiyasida faol ishtirok etmoqda. Tyanszin dengiz kasb-hunar kolleji va Toshkent davlat transport universiteti "LuBan Workshop" loyihasini O'zbekistonda faol ravishda ilgari surmoqda. O'tgan oy Shensi shahridagi ko'plab universitetlar O'zbekistonda oliy ta'lim ko'rgazmasini taqdim etgan bo'lsa, shu hafta Xitoy Xalq universiteti O'zbekiston Milliy universiteti bilan hamkorlik bitimini imzolaydi.

Madaniyat sohasida ikkala tomon bir-birlari uchun san'at festivallari, ko'rgazmalar va seminarlar kabi bir qator madaniy va badiiy tadbirlarni tashkil etishdi va birgalikda "Bahorning quvnoq bayrami" va "Xitoy ko'prigi"ni nishonlashdi.

Yaqinda O'zbekistonda "Xitoy madaniyati kunlari" bo'lib o'tadi va unda 100 kishidan iborat Shinjon badiiy truppa yil davomida maxsus teatrlashtirilgan tomoshalarni namoyish etish uchun yurtingizga keladi.

O'zbekistonlik sportchilarning ko'plab sport turlari bo'yicha erishgan muvaffaqiyatlari, jumladan, yaqinda Xanchjou shahrida bo'lib o'tgan Osiyo o'yinlarida medallar g'alg'arish bo'yicha beshinchi o'rinni egallaganini bilan ta'kidlayman.

Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi ommaviy axborot vositalari hamkorligi ham izchil mustahkamlanib bormoqda. Yaqinda Xitoyning "CCTV" va "China Movie Channel" O'zbekistonning "Renessans" va "ZOR TV" telekanallari o'rtasida kino va dramalar teletranslyatsiyalari sohasida hamkorlik memorandumini imzolandi. Shuningdek, O'zbekistonda Xitoy kino haftaligini o'tkazish nazarda tutilgan. Xitoy so'nggi yillarda o'tkazilgan "Ipak yo'li gavhari" Toshkent xalqaro kino festivalida "Adashayotgan yer" va boshqa ko'plab kino va teleasarlari bilan ishtirok etdi.

Ikki davlat arxeologlari o'rtasidagi hamkorlik ham chuqurlashib bormoqda. Xitoy tomoni ko'magida Xorazm viloyatidagi tarixiy-madaniy yodgorliklarni tiklash ishlari muvaffaqiyatli yakunlandi. Mingtepa o'rni va Kaunchin madaniyati xarobalari bo'yab arxeologik qazishmalar olib borilmoqda.

Yaqinda Samarqand shahrida arxeologiya va madaniy merosi muhofaza qilish bo'yicha qo'shma ilmiy-texnik laboratoriya ochildi. Pekinning "Yopiq shahri" da o'tkazilgan "Bir makon va bir yo'l" arxeologik ko'rgazmasida O'zbekistondan ko'plab madaniy yodgorliklarni namoyish etildi va ular Xitoy jamoatchiligining e'tiborini tortdi.

Bundan tashqari, O'zbekistonning boy sayyohlik va madaniy salohiyati xitoylik sayyohlarni tobora ko'proq o'ziga jalb etmoqda.

Xitoy Raisi Si Szinpin sivilizatsiyalararo almashinuv va o'zaro ta'limni chuqurlashtirish muhim yo'li ekanini ta'kidlagan edi. Umumiy rivojlanish va tiklanish manfaatlarini, ikki xalq o'rtasidagi o'zaro anglashuv va do'stlikni mustahkamlash maqsadida Xitoy O'zbekiston bilan global sivilizatsiya tashabbusini amalga oshirishda sheriklikda ishlashga, do'stona hamkorlikni kengaytirish uchun universitetlarni birgalikda qo'llab-quvvatlashga, sayyohlik salohiyatidan foydalanishga, ko'proq madaniy va badiiy tadbirlarni o'tkazishga, kadrlar almashinuvi kengaytirishga, ayniqsa, yoshlar o'rtasida gumanitar fanlarning yangi uqrlarini ochish bo'yicha hamkorlikka doim tayyor.

"Dunyo" AA.

Konferensiya

MINTAQAVIY MULOQOT — TINCHLIK VA XAVFSIZLIK GAROVI

Markaziy Osiyo davlatlari yetakchi ayollari muloqoti doirasida "Ayollar, tinchlik va xavfsizlik" mavzuidagi konferensiya Qozog'istonning Olmaota shahrida bo'lib o'tdi.

Nufuzli anjumanda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi Gulnora Ma'rufova ma'ruza bilan ishtirok etdi.

Konferensiya doirasida uyushtirilgan tadbirlarda qatnashchilar qurolli mojarolar va gumanitar ofatlarda xotin-qizlar xavfsizligini ta'minlash hamda gender zo'ravonlikdan himoyalash masalalariga alohida e'tibor qaratdi.

Senator G. Ma'rufova o'z ma'ruzasida ta'kidlab o'tganidek, keyingi yillarda O'zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan xotin-qizlarni turli tazyiqlardan himoyalash hamda ularning jamiyatda teng huquqli va faol bo'lishi uchun barcha shart-sharoit yaratilmoqda. Shu sa'y-harakatlarning mantiqiy davomi sifatida

mamlakatimizda ayollar va voyaga yetmaganlarni turli tazyiq va zo'ravonlikdan himoyalash uchun oilalarda xotin-qizlar va bolalarga nisbatan zo'ravonliklar jinoyi harakat, deb qaralishini ta'minlovchi qonun qabul qilinib, amaliyotga tatbiq etib kelinyotir.

O'z navbatida, vakilimiz Markaziy Osiyo davlatlari o'z maqsadlariga erishish va majburiyatlarini amalga oshirish kerakligi yuzasidan ham bir qator takliflarni bildirdi. Tadbirda keng qamrovli muloqot va mintaqaviy hamkorlik mavjud qarama-qarshiliklarga yechim topish, ko'p asrlik do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va egzulik barqarorligi hamda Markaziy Osiyoda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash garovi ekanligi qayd etildi.

"Xalq so'zi".

ISTIROHAT BOG'LARINI ASLIDAY SAQLAB QOLISH ZARUR

Sir emas, keyingi yillarda yurtimizda mavjud madaniyat va istirohat bog'lari faoliyatini tizimli yo'lga qo'yish, tashkiliy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash borasida muayyan muammo va qiyinchiliklar vujudga kelmoqda. Bu, albatta, sohada tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmaganini bilan izohlanadi. Natijada mazkur soha boshqaruv tizimida noaniqliklarga yo'l qo'yilmoqda.

O'rganish

Bunga ko'plab hayotiy misollar keltirish mumkin. Istirohat bog'lari rekonstruksiya qilish, atraksionlar, savdo shoxobchalari va pulli xizmat ko'rsatish obyektlarini qurish yoki boshqa vajlar bilan hududdagi qimmatbaho daraxt va butalar ayovsiz kesilyapti. Oqibatda o'simlik dunyosi obyektlariga o'nglab bo'lmas darajada zarar yetkazish holatlari, afsuski, tez-tez uchrab turibdi.

Yaqinda Oliy Majlis Senati Orolbo'y mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi o'rinbosari B. Matmuratov "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning ijrosi hamda istirohat bog'laridagi mavjud holatni poytaxtimizdagi "Lokomotiv" istirohat bog'i misolida o'rgandi.

"Xalq so'zi".

EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISH CHORALARI BELGILAB OLINDI

Oliy Majlis Senatining Orolbo'y mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi Boriy Alixonov boshchiligidagi O'zbekiston parlament delegatsiyasi Sankt-Peterburg shahrida o'tkazilgan MDH Parlamentlararo Assambleyasi huzuridagi Ekologiya va tabiatdan foydalanish bo'yicha ekspertlar kengashi yig'ilishi hamda "Tog'li hududlarning barqaror rivojlanishi" mavzuidagi xalqaro forumda ishtirok etdi.

Anjuman

Ekspert kengashi majlisida ushbu tuzilma faoliyat yo'nalishlari, neft qazib olish va qayta ishlash bilan bog'liq ekologik muammolarni muhokama qilindi, ularni hal etish choralarini aniqlab belgilab olindi.

Hamdo'stlik davlatlari parlament a'zolari, olim va ekspertlar tomonidan atrof-muhitga zarar kuchi bo'lgan obyektlarni foydalanishdan chiqarish, ularni bartaraf etish yo'llari, hududlar ekologik xavfsizligini ta'minlash masalalari ham ko'rib chiqildi.

Senator B. Alixonov aytganidek, yurtimizda milliy qonunchilikni takomillashtirish borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada zamonaviy talablarga javob beradigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Ayni paytda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalarini tartibga soluvchi 30 dan ortiq qonunlar va 250 ga yaqin me'yoriy-huquqiy hujjatlar mavjudligi ham shundan dalolat beradi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham bu boradagi normalar mustahkamlab qo'yilgan. Mamlakatimiz parlamenti a'zolari "Tog'li hududlarning

"Xalq so'zi".

ADOLATLI DUNYO KONSEPSIYASI

YAGONA TAQRIRGA EGA INSONIYAT HAMJAMIYATINI YARATISH G'OYASI NIMAGA TAYANADI?

Afrosiyobda o'tkazilgan qazish ishlariida qalin tuproq ostidan bu shaharcha hukmdorining qasri ham topilgan. Devorlarda saqlanib qolgan rasmlarda bundan deyarli 1500-yil ilgari yuz bergan voqea — chet elchi mehmonlarni kutib olish marosimi aks ettirilgan. Suratning bir qismida qo'lda shoyi va ipak matolar tutilgan xitoy delegatsiyasi a'zolari ham aks ettirilgan. Uni chizgan noma'lum rassom imperatorning ov paytidagi jasoratini ajoyib tasvirlagan. Shuningdek, u qo'riqchilari qurshovida qayiqda suzib boryotgan malikaning nazokatini ham mohirona aks ettira olgan.

Bugungi kunda esa Samarqand o'zining mo'jizakor, unutilmas manzarasi bilan dunyo sayyohlarini hamon o'ziga jalb etib kelmoqda. Ular orasida Xitoydan keluvchilar ham ko'p — xuddi bir zamonlar tarixiy yo'nalish javohiri sifatida savdogarlarni shu yerga tortqani kabi. Hozirgi sharoitlarda ipak yo'li bo'yab sayohat qilish juda osan bo'lib qoldi. Lekin bu sayohatlar ham, qadimiy yo'lning o'zi ham afsonaviy sehrini yo'qotgani yo'q. Boshqacham madaniyat va tamaddun, turli an'analar bilan ajralib turuvchi odamlar bilan muloqot barcha mehmonlarga ajib lazzat baxsh etadi. Bu qadimgi shahar ayni zamonada hammaga yagona tarix birlashtirib turuvchi insonlar va mamlakatlar haqida eslatib turibdi.

Do'stona va ishonchli munosabatlardan maqsad — taraqqiyot va farovonlik, aynan shu g'oya esa bu munosabatlarning asosini tashkil etadi. Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin shu g'oyaning dolzarbligini haqidagi fikrni ilgari surdi. Yagona taqdirga ega insoniyat hamjamiyatini qurish konsepsiyasi haqida gapirgan Xitoy yetakchisi so'zlariga ko'ra mazkur g'oya izlanishlar yo'lidagi bashariyat oldinga intilishi uchun mayqo bo'lib, shuningdek, eng yaxshi kelajakni yaratish, umumiy uyimizni birgalikda himoya qilish va taraqqiyot mevalaridan birga foydalanish bo'yicha sa'y-harakatlarimizni namoyon etadi.

Mintaqa uchun ahamiyati
"Ipak yo'li iqtisodiy makoni"ni qurish haqidagi taklif ilk bora 2013-yilning sentyabrida Markaziy Osiyoda yangradi. O'n yil ichida "Bir makon,

bir yo'l" tashabbusi muayyan rejaga va xalqaro hamkorlikning yirik platformasiga aylandi.

O'tgan yillar davomida "Makon va yo'l" doirasidagi hamkorlik o'zaro maslahatlashuvlar, birgalikda qurish va foydalanish tamoyillari bilan ajralib turdi. Katta natijalarga ham erishildi. Tashabbusni ro'yobga chiqarishda dunyo mamlakatlarning to'rtidan uch qismi qatnashdi, uch mingdan ortiq qo'shma loyihalar amalga oshirildi. Deyarli bir trillion dollar miqdordagi sarmoyalari jalb etildi va bu yo'nalish atrofida joylashgan mamlakatlarda 420 mingta ish o'rni yaratilishiga imkon berdi.

Xitoy Mediakorporatsiyasi va Xitoy xalq universiteti tomonidan "Novaya era" kommunikatsiyaviy tadqiqotlar xalqaro instituti ko'magida tashabbus ishtirokchisi bo'lgan 35 ta mamlakatning deyarli 4 ming nafar aholisi o'rtasida o'tkazilgan global so'rov natijalari ko'rsatishicha, ularning 93,8 foizi loyihani amalga oshirish bo'yicha o'n yilda erishilgan yutuqlarni ijobiy baholashdi.

So'rov natijalariga ko'ra qatnashchilarning 92,2 foizi rivojlangan infratuzilma iqtisodiy o'sish uchun zarur shartdir, deb hisoblaydi. Uning buniyod etilishi odamlarning hayot sifatini yaxshiladi, deya javob berdi so'rovda ishtirok etganlarining 86,9 foizi. Yana taxminan shuncha qatnashchi — infratuzilma ularning mamlakati taraqqiyotini tezlashtirdi, degan javobni berdi.

So'rov qatnashchilarning 85 foizi "Makon va yo'l" doirasida odamlarda tashqi dunyo bilan muloqot va o'zaro ta'lim olish uchun imkoniyatlar kengayganini tasdiqlashdi. Ko'pchilik tan olganidek, bunday o'zaro hamkorlik bandlik darajasining o'sishiga, aholi daromadlarining ko'payishiga, kambag'allikning qisqarishiga xizmat qiladi.

Yana bir boshqa ijtimoiy so'rov 35 mamlakatning 4 ming nafar yoshlari o'rtasida o'tkazilgan. Uning ko'rsatishicha, yangi avlod vakillari ham "Makon va yo'l" tashabbusining asosiy konsepsiyasini va uning so'nggi o'n yillikda erishilgan natijalarini ijobiy qabul qilishadi. So'rovda qatnashgan 18 — 24 yoshli ishtirokchilarning 88,8 foizi ipak yo'li ruhini yuksak baholaydilar, bu ruh tinchlik va

hamkorlik, ochiqlik va inkiyuzivlik, o'zaro ta'lim va o'zaro manfaat bilan ajralib turadi.

Bizning mintaqamiz ham yuzaga kelgan an'analaridan chetda qolmadi, megaloyihada qatnashish foydali bo'ldi. "Talap" amaliy tadqiqotlar markazi direktori Rahim Oshakbayevning fikricha, Markaziy Osiyo "Makon va yo'l" tashabbusini ro'yobga chiqarish jarayonida hal qiluvchi retsiyentdir. Qozog'istonlik ekspert fikricha, uning hayotga tatbiq etilishi, shuningdek, investitsiyalar va infratuzilmaviy loyihalar mintaq mamlakatlari uchun ahamiyatlidir. Yagona taqdirga ega insoniyat hamjamiyati bugungi kunda juda zarur, u teng huquqli, adolatli dunyo tuzilishini buniyod etishga noyob yondashuvdir. U insonparvarlik, adolat va tenglik tamoyillariga tayanadi, bunda hech bir mamlakat boshqasiga kim bilan savdo qilish, moliyaviy ishlarni qanday olib borish, kim bilan do'st bo'lish haqida ko'rsatma bermaydi.

Xitoy joriy yilning iyun oyigacha "Makon va yo'l" tashabbusi doirasida beshta qit'ada joylashgan 150 dan ziyod davlatlar va 30 dan ortiq xalqaro tashkilotlar bilan 200 tadan ko'proq bitimlarini imzoladi.

"Agar boy bo'lmoqchi bo'lsang, yo'llar qurgin", degan xitoycha hikmatli so'zlardan birini ko'pchilik biladi. Bu sohada hamkorlik qanday rivojlanayotganiga yorin missollardan biri Angren — Pop temir yo'lining qurilishi bo'ldi. XXR Davlat Kengashi matbuot-devonxonasi tomonidan chop etilgan "Yagona taqdirga ega insoniyat hamjamiyatini hamkorlikda qurish: Xitoy tashabbuslari va sa'y-harakatlari" deb nomlangan Og kitobda yozilishicha: "Xitoylik quruvchilar 900 kunda shunday mo'jiza yaratdilar, u tufayli poyezd tog' yo'lini 900 sekundda bosib o'tadi". Temir yo'lining qismlarini birlashtirish uchun baland tog'lar ustida "Qamchiq" tunnelini buniyod etish kerak bo'ldi. U Markaziy Osiyoda eng uzun tunneldir.

Nafaqat savdo va iqtisodiyot
Albatta, tashabbus faqat yo'llar bilan cheklanib qolmaydi. 150 mamlakatni birlashtirgan "Makon va yo'l" global savdo-iqtisodiy loyihaga

doirasidan ancha kengroq. Yagona taqdirga ega insoniyat hamjamiyati rivojlanayotgan va kichik mamlakatlarga ham qit'alararo va butun dunyo jarayonlariga integratsiyalashuvi tufayli xalqaro maydonda dadiroq harakat qilish imkoniyatini beradi. Shunday qilib, nafaqat ularning salohiyati, savdo sherigi sifatida investitsiyalarining jozibadorligi to'laroq namoyon bo'ladi, balki ularning ovozi ham global siyosiy makonda balandroq jaranglaydi.

Xitoy tomonidan ilgari surilgan va dunyoning ko'pgina davlatlari qo'llab-quvvatlagan tashabbuslar tufayli, bundan avvalgi o'n yillik anchagina yutuqlar bilan ajralib turdi. "Makon va yo'l" doirasida xalqaro hamkorlik bo'yicha uchmchi forum — bu o'tgan davrning yutuqlarini umumlashtirish uchun ajoyib imkoniyat.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ayni vaqtda ushbu forumda qatnashish hamda ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazish uchun Pekinda bo'lib turibdi. Asosiy tadbirlar bugun, 18-oktabr kuni Tyananmen maydonidagi Xalq majlislari Uyida bo'lib o'tadi. Umumiy majlisi XXR Raisi Si Szinpin ochib beradi.

Shu kunlarda yana turli qit'alarda kelgan "aqi markazlari" vakillari va ekspertlar ishtirokida seminarlar bo'lib o'tadi. Xitoyning turli shaharlarini qamrab olgan madaniy tadbirlar dasturi ham rejalashtirilgan va bo'lib o'tmoqda.

Masalan, Shensi provinsiyasining markazi — Sian shahrida 9-chi xalqaro "Ipak yo'li" san'at festivali ochildi. Unda qatnashish uchun 90 ta mamlakat va mintaqadan san'atkorlar tashrif buyurgan. Ushbu tadbir teatr namoyishlaridan boshlab to' tasviriy san'atgacha bo'lgan yo'nalishlarn

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

ISLOHOTLAR SAMARADORLIGINING KAFOLATI

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda dastlab Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Samarqand shahrida Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assambleyasi 25-sessiyasining ochilish marosimida so'zlagan nutqi, unda ilgari surilgan bir qator muhim tashabbuslarning mazmun-mohiyati, ahamiyatiga keng o'xtalib o'tildi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi

Deputatlar "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jinoiyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasini muddamamda muhokama etdilar.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda jinoiyatchilikka qarshi kurashish, jinoiyat uchun jazo muqarrarligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini jinoiy tajovuzlardan ishonchli himoyalash borasida keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunga jinoiyatlarni sodir etgan shaxslarni aniqlash va qidirish,

shuningdek, jazoni o'tashdan bo'yin tovlayotgan hamda bedarak yo'qolgan shaxslarni qidirish maqsadida ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan bepul foydalanishga doir ichki ishlar organlarining huquqlarini aniqlashtirishni nazarda tutuvchi o'zgartirish kiritilmoqda.

Bundan tashqari, "Ma'muriy qamoqni o'tash tartibi to'g'risida"gi Qonun ham jinoiyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha bilan o'ldirilmoqda.

Deputatlar ta'kidlashicha, qonun loyihasining qabul qilinishi jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini yanada ishonchli ta'minlashga, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoiyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha tadbirlar samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Vakil devonining huquqiy maqomi yanada kuchaytirilmoqda

Tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakil va uning devoniga huquqiy maqom berishga qaratilgan — "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 22-moddasiga o'zgartirish kiritish haqida"gi qonun loyihasi ham ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

yo'nalish bo'yicha keng ko'lami islohotlar doirasida mazkur tarmoqni rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratilayotgani alohida qayd etildi. Shuningdek, majlisda deputatlar tomonidan huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoiyatchilikka qarshi kurashish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va ular huquqlari himoyasi, odil sudlovdan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytirishga qaratilgan muhim qonun loyihalari ko'rib chiqilib, birinchi va ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Qayd etilganidek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasida tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish davlat siyosati darajasigacha ko'tarildi. Davlat va biznes o'rtasida samarali muloqot o'rnatishga qaratilgan bir qator institutsiyaviy va tuzilimviy islohotlar amalga oshirildi. Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va ularning huquqlarini himoya qilishning yangi mexanizmlari joriy etildi.

Ushbu qonun loyihasi bilan Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devonining davlat organi sifatidagi maqomi aniqlashtirilmoqda.

Muhokamalar davomida deputatlar qonun loyihasi yuzasidan o'z fikr-mulohazalari, takliflarini bildirdi. Hujjatdagi ayrim normalar yuzasidan turli masalalar o'rta qatnashdagi muammasini muhokama qilindi.

Qizg'in bahs-munozaralardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Ortiqcha ovoragarchiliklarning oldi olinadi

"Davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ham quyi palata majlisida muhokama markazida bo'ldi.

Ushbu qonun loyihasi bilan davlat organlari, xo'jalik birlashmalari, mahalliy



ijro etuvchi hokimiyat organlari va davlat tashkilotlari tomonidan aholidan, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlaridan jami 15 ta (diplom, litsenziya, ruxsatnoma, davlat boji, yig'img'lar va boshqa) to'lovlar to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar va boshqa) faktlarni tasdiqlovchi ma'lumotlar va hujjatlarni talab etish bekor qilinmoqda.

Shunga ko'ra, 13 ta qonunga faktlarni tasdiqlovchi ma'lumotlar va hujjatlarni talab etmaslik bo'yicha tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Bundan tashqari, advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun davlat boji miqdorini BHMning ikki baravaridan bir baravargacha kamaytirish bo'yicha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Deputatlar qayd etishicha, qonun loyihasining qabul qilinishi davlat xizmatlari sifatini o'rnatilishini ta'minlashga, turli toifadagi davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirishga, idoralarda fuqarolar haqidagi ma'lumotlar yagona identifikatorlar asosida saqlanishi uchun huquqiy asoslar yaratishga yo'l ochadi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Odil sudlovdan foydalanish imkoniyati yanada kengayadi

"Davlat boji to'g'risida"gi O'zbekiston

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Davlat boji to'g'risida imtiyoz berilyapti

"Davlat boji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni ma'muriy sudlarga shikoyat qilish tartibi soddalashtirilishi munosabati bilan qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda muhokama qilindi.

Majlisda qayd etilganidek, mamlakatimizda sud tizimini demokratlashtirish, sudga murojaat qilishni erkinlashtirish, davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarining samarali himoya etilishini ta'minlashga qaratilgan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan sud organlari faoliyatiga oid, shuningdek, shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilishga oid bir qator konstitutsiyaviy kafolatlarni belgilandi.

Ushbu qonun loyihasi bilan har bir shaxsning o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi kafolatlari yanada kuchaytirish maqsadida ma'muriy sudlarga shikoyat berishda fuqaro va tadbirkorlik subyektlaridan davlat boji undirilmaydi, bunda davlat boji ishi ko'rib chiqish natijasi bo'yicha aybdor tarafdan undirish tartibini joriy etish belgilanayotir.

Deputatlar ta'kidlashicha, qonun loyihasi fuqarolarning Konstitutsiyada belgilangan sud orqali himoya qilinish va sudga shikoyat berish huquqi kafolatlari yanada kuchaytirishga, ularning buzilgan huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini yanada ishonchli himoya etishga, odil sudlovga erishish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Parlament axborot markazi.

18-oktabr — Samarqand shahri kuni

YANGILANIB BORAYOTGAN KO'HNA VA BOQIY SHAHAR

Bugungi kunda mamlakatimizning barcha hududida bo'lgani kabi Samarqand shahrida ham aholi va mehmonlarga qulaylik yaratish maqsadida keng ko'lami buyudkorlik — ko'p qavatli uylar, keng va ravon yo'llar qurish, obodonlashtirish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya va modernizatsiyalash ishlari jadal olib borilmoqda.

Xususan, Samarqand shahri infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo'yicha 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan investitsiyaviy loyiha asosida ikkita tunnel, ikkita ko'priq, yo'llar va suv inshootlari qurilmoqda. Mazkur loyiha uchun davlatimiz rahbarining tegishli qaroriga asosan katta miqdorda kredit mablag'lari ajratildi.

Ayni chog'da shaharning Gagarin va Mirzo Ulug'bek ko'chalari kesishmasida qazish ishlari olib borilib, uzunligi 44 metr bo'lgan tunnel qurilishiga kirishilgan. Ushbu loyiha "Me'mor O'tirk Chovka LLC" (O'zbekiston) & "Sha'anxi Road and Bridge Group Co., Ltd" (Xitoy) konsorsiumi tomonidan amalga oshirilmoqda.

— Qurilish ishlarida xitoylik va turkiyalik malakali mutaxassislar yaqindan yordam beryapti, — deydi loyihaning texnika xavfsizligi bo'yicha muhandisi Alisher Umidov. — Hozirgacha eski kommunikatsiya tarmoqlari xavfsiz hududga ko'chirildi. Hududni tozalab, handaq kavlashda yer ostida ko'milib ketgan, biroq ayni paytda ishlab turgan kommunikatsiya va oqova, elektr energiyasi tarmoqlarini chiqarib olish biroz qiyin. Bunda bizga maxsus texnikalar va tajribali mutaxassislar yordami qo'l kelmoqda.


Qayd qilingan loyiha doirasida Amir Temur ko'chasining 2,3 kilometr hamda Gagarin ko'chasining 9,2 kilometr qismi qurilib, rekonstruksiya qilinadi. Shu kunlarda Amir Temur ko'chasidagi ishlar deyarli yakuniga yetkazilmoqda.

— Shaharning Mulyon-2 mahallasida yashayman, — deydi fuqaro Narziqul Shodiyev. — Juda ko'p yillardan beri tabiiy gaz bosimining pastligidan qiynalari edik. Majburiydan oxirgi payt suyuqlirilgan gaz ballonlaridan foydalandik. Mana, endilikda yangi gaz quvurlari tortilib, tabiiy gaz ta'minoti yaxshilandi. Bundan nihoyatda mamnunmiz.

Ko'hna va boqiy shahar o'ziga xos jozibasi bilan mehmonlarni mafun etadi. Shu ma'noda, Samarqand shahri yirik xalqaro anjuman va uchrashuvlar, forumlar o'tkaziladigan markazga aylaniy ulgurdi.

Birgina misol, ko'zni quvontiradigan "Silk Road Samarqand" xalqaro turizm markazi kompleksining barpo etilganligi natijasida Samarqand shahriga keluvchi xorijiy hamda mahalliy sayyohlar soni so'nggi ikki yilda o'tgan davrlardagiga nisbatan 5 barobarga oshgan. O'tgan yili ushbu qadim shaharga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni 4,2 mln. nafarni tashkil etgan bo'lsa, joriy yilda ular safi 10 millionga yetishi kutilmoqda.

Ta'kidlash joizki, markaz bugungi kunda yangi O'zbekistonning turizm darvozasi



sifatida ishbilarmonlik hamda biznes turizmini rivojlantirishga turk bo'ladigan yirik xalqaro tadbirlar, biznes forumlari va xalqaro sport musobaqalariga mezbonlik qilmoqda.

Jumladan, Shanxay hamkorlik tashkiloti va Turkiy davlatlar tashkiloti sammitlari, Yevropa tiklanishi va taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining "Iqtisodiy chidamlilik va barqarorlikka investitsiyalar kiritish" mavzuidagi 32-yillik yig'ilishi hamda o'nlab yuqori darajadagi xalqaro anjumanlar muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Shu kunlarda Samarqand yana dunyo nigohida. Chunki tarixda ilk bor 16 — 20-oktabr kunlari Samarqand shahrida yuzlab davlatlardan turizm yo'nalishida faoliyat yurituvchi davlat idoralari rahbarlari, xalqaro tashkilotlar va sayyohlik biznesi vakillarini birlashtirgan Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assambleyasining 25-yubiley sessiyasi bo'lib o'tayotir. Bunda ham o'ziga xos ramziy ma'no mujassam.

Shuni alohida aytish joizki, Samarqandning turizm salohiyatini yanada oshirish, turizm namoyish obyektlari va ularga yondosh hududlarning infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha ham bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, Shohi Zinda majmuasi, Bibi Xonim masjidi va maqbarasi, Registon ansambli, Amir Temur maqbarasi, Ashratxona maqbarasi, Mahdumi Xorazmiy masjidi, Ruhobod majmuasi, Xo'ja Duniyor maqbarasi, Oqsaroy maqbarasi, Dari Zanjir majmuasi va Samarqand arxeologik tadqiqotlar institutida 14,8 mlrd. so'mlik restavratsiya ishlari amalga oshirilib, moddiy-madaniy meros obyektlarining jozibadorligi saqlab qolindi, ularga etuvchi yo'llar obodonlashtirildi. Sayyohlar gavjum maskanlar va ularga tutash hududlar atrofida WI-FI nuqtalari tashkil etildi.

Darvoqe, Samarqand xalqaro aeroporti rekonstruksiya qilingach, yillik yo'lovchilar oqimini 1,5 millionga yetkazish, aeroportni mintaqadagi yirik xabga aylantirish maqsadida "ochiq osmon" rejimi va "beshinchi havo erkinligi" huquqi joriy etildi. Buning natijasida 2021 — 2025-yillar davomida yo'lovchilar sonini soatiga 350 dan 600 nafargacha oshirish, muntazam aviaqatnovlarni haftasiga 40 tadan 280 taga yetkazish, yo'lovchilar sonini yiliga 16 mingdan 1,5 million nafargacha oshirish imkoniyati yaratildi.

Abdulaziz YO'LDOSHEV ("Xalq so'zi").

Hasan PAYDOYEV olgan suratlar.

MUHOKAMALAR, TAQDIMOTLAR VA KELISHUVLAR

Xabar berilganidek, Samarqand shahrida bo'lib o'tayotgan Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining 25-sessiyasi ikkinchi kuni hamda uning doirasidagi tadbirlar mazmunan boy va qizg'in kechdi. Xususan, "Silk Road Samarqand" xalqaro turizm majmuasining "Ekspomarkaz"ida mazkur xalqaro anjuman doirasida Global investitsiya forumi va ko'rgazma tashkil etildi. Unda vazirlar, xalqaro moliya institutlari rahbarlari ishtirokida muhokamalar, panel sessiyalar, qator taqdimotlar o'tkazildi.

Xalqaro forum

"Ekspomarkaz" da mamlakatimiz 14 ta hududining turistik-investitsiyaviy salohiyatini aks ettiruvchi, uchta turistik-rekreasiya zona — Zomin, Chorvoq, Chimyon hududlari, Markaziy Osiyo davlatlari — Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonning, shuningdek, Yaponiya, Chexiya, Fransiya va Braziliyaning o'rta rta startap loyihasi hamda O'zbekiston Turizm qo'mitasi, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ, "O'zbekiston aeroportlari" AJ va "O'zbekiston vertolyotlari" MCHJ stendlari tashkil etildi.

E'tiborlisi, yuzdan ortiq davlatlardan vakillar, shu jumladan, yirik xorijiy investor hamda mahalliy kompaniyalar Bosh assambleyaning rasmiy veb-saytidagi maxsus havola orqali ro'yxatdan o'tib qatnashdi.

Forum doirasida umumiy qiymati 2 mlrd. dollarlik istiqbolli

loyihalar manzilli ro'yxati shakllantirilib, investorlarga taqdim qilindi.

Investitsiya forumi va ko'rgazma doirasida viloyatdagi birgina tur kompaniyasining o'zi Xitoy hamda Rossiya bilan 32 million dollarlik shartnoma imzoladi, — deydi Farg'ona viloyati hokimining o'rinbosari Xurshid Ahmedov. — Bu yurtimizda turizmni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor natijasidir. Viloyatda kelgusi yilda xorijlik sayyohlar sonini 500 ming nafargacha, mahalliy sayyohlar sonini 3 millionga yetkazish maqsad qilingan. Buning uchun bugungi yaratilgan mana shunday imkoniyatdan foydalanib, xorijiy tur kompaniyalar va investorlar bilan ko'plab kelishuvlarga erishamiz, deb o'ylayman. Shu bois bu yerda Farg'onaning turistik salohiyatini keng namoyish etishga harakat qilyapmiz.

Investitsiya forumida O'zbekistonning barcha hududidagi investitsiyaviy salohiyati yuqori bo'lgan obyektlar, loyihalar bo'yicha yirik xorijiy investorlarga taqdimot qilinib, yurtimizga faol maqsadli va manzilli investitsiyalar jalb etilishi bo'yicha ko'plab muhim biznes kelishuvlarga erishilmoqda.

O'zbekiston juda



go'zal mamlakat, odamlari mehmondo'st, — deydi Xitoyning "Shansi" turistik korporatsiyasi direktori Zou Bing. — O'zbekiston va Xitoy sayyohlik almashuvini kengaytirishdan manfaatdor. Har ikkala mamlakat ushbu sohadagi hamkorlik uchun katta salohiyatga ega, tarixiy obidalarga, milliy qadriyatlariga boy. Bugungi forumda kelgusidagi rejalarni kelishib oldik.

Ta'kidlash kerakki, forum davomida bo'lib o'tgan muhokamalar, panel sessiyalar, taqdimotlarda yangi

Global investitsiya forumi hamda ko'rgazma davom etmoqda.

— Xalqaro tadbirning ochilish marosimida qatnashib, Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqini katta hayajon bilan tingladim, — deydi moldovalik ekspert Abdulla Mausum. — Bu nutq dunyodagi barcha turizm manzillarini rivoji uchun muhim hisoblanadi. Ayniqsa, sohaning hozirgi holati va kelajakdagi rejalarga urg'u berildi. O'zim ham turizm manzillariga, qadimiy obidalarni borib ko'rishga juda ham qiziqaman. O'zbekiston, ayniqsa, Samarqand ana shunday tarixiylikka boy hamda Buyuk Ipak yo'lida muhim ahamiyatga ega. Boy madaniyati, o'ziga xos urf-odatlari, me'moriy obidalari barcha sayyohlarni o'ziga ram etadi. Bugungi forum va ko'rgazmalarda hududning turistik salohiyati yana bir bor namoyish etildi. Bu barcha uchun ham qiziqarli, ham manfaatlidir.

Darvoqe, "Silk Road Samarqand" xalqaro turistik markazidagi "Boqiy shahar" da gastronomik festival ham o'tkazilyapti. Respublikamizning barcha viloyatidan kelgan eng yaxshi oshpazlar o'zbek milliy taomlarini tayyorlash bo'yicha o'z mahoratini namoyish etishyapti. Bu xorijlik va mahalliy ishtirokchilarda katta taassurot qoldirmoqda.

"Xalq so'zi".

QO'SHMA SAYYOHLIK YO'NALISHLARINI YARATISH DIQQAT MARKAZIDA BO'LADI

Shu kunlarda Samarqand shahri yana bir nufuzli xalqaro anjuman — Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assambleyasining 25-sessiyasiga mezbonlik qilmoqda. Unda 140 dan ziyod mamlakatlar vakillari ishtirok etmoqda.

Munosabat

UNWTO o'zining bosh tadbiri uchun Samarqandni tanlagani bejiz emas, bunda chuqur ramziy ma'no bor. Ushbu ko'hna va hamisha navqiron shahar azal-azaldan tarixiy uchrashuvlar va sivilizatsiyalar almashinuvi markazi bo'lib kelgan. Bu yerda turli madaniyatlar o'zaro uchrashib, bir-birini to'ldirib, boyitib kelganligi hech kimga sir emas. Bunga misol sifatida o'rta asrlarda faoliyat yuritgan Buyuk Ipak yo'lini eslatishning o'zi kifoyadir.

Hozirgi kunda ham "Sharq gavhari" bo'lmish Samarqand mamlakatimizning eng muhim xalqaro va diplomatik tashabbuslarini ilgari surish uchun o'ziga xos platforma vazifasini o'tamoqda. So'nggi yillarda bu yerda xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik qator tadbir va anjumanlar o'tkazilganligi fikrimizning yorqin dalilidir. Masalan, "Markaziy Osiyo: yagona o'tmish va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va farovonlik yo'lidagi hamkorlik" mavzuidagi



xalqaro konferensiya (2017-yil), Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi (2018-yil) Inson huquqlari bo'yicha Samarqand forumi (2020-yil), SHHT Davlat rahbarlari kengashi sammiti (2022-yil) kabi qator yirik forumlar aynan Samarqandda o'tkazildi.

Aytish joizki, UNWTOning Samarqand anjumaniga qizg'in tayyorgarlik ko'roidi. Sammit doirasida O'zbekistonning barcha hududi sayyohlik salohiyatini namoyish qiluvchi ko'rgazmaning tashkil etilgani

amalo etmoqda. — Xalqaro tadbirning ochilish marosimida qatnashib, Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqini katta hayajon bilan tingladim, — deydi moldovalik ekspert Abdulla Mausum. — Bu nutq dunyodagi barcha turizm manzillarini rivoji uchun muhim hisoblanadi. Ayniqsa, sohaning hozirgi holati va kelajakdagi rejalarga urg'u berildi. O'zim ham turizm manzillariga, qadimiy obidalarni borib ko'rishga juda ham qiziqaman. O'zbekiston, ayniqsa, Samarqand ana shunday tarixiylikka boy hamda Buyuk Ipak yo'lida muhim ahamiyatga ega. Boy madaniyati, o'ziga xos urf-odatlari, me'moriy obidalari barcha sayyohlarni o'ziga ram etadi. Bugungi forum va ko'rgazmalarda hududning turistik salohiyati yana bir bor namoyish etildi. Bu barcha uchun ham qiziqarli, ham manfaatlidir.

Darvoqe, "Silk Road Samarqand" xalqaro turistik markazidagi "Boqiy shahar" da gastronomik festival ham o'tkazilyapti. Respublikamizning barcha viloyatidan kelgan eng yaxshi oshpazlar o'zbek milliy taomlarini tayyorlash bo'yicha o'z mahoratini namoyish etishyapti. Bu xorijlik va mahalliy ishtirokchilarda katta taassurot qoldirmoqda.

"Xalq so'zi".



ham alohida o'xtalib o'tdi. Turizmning nafaqat ko'hna tarixiy obidalar yo'nalishi haqida, balki ziyorat turizmi, "yashil", ya'ni

ekologik turizm, inkiyuziv turizm kabi yo'nalishlarini rivojlantirish dolzarbligini qayd etdi.

Mamlakatimiz yetakchisi BMT doirasida Global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqishni taklif qildi hamda yaqinda Samarqandda ochiqgan turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha dunyoda muqobil yo'q UNWTO Xalqaro turizm akademiyasida mutaxassislarni o'qitish uchun maxsus grantlar ajratilishini e'lon qildi.

Ayniqsa, Markaziy Osiyodagi qo'shni davlatlar bilan turizm sohasida hamkorlikda turli loyihalarni yo'lga qo'yish yaxshigina istiqbolga egaligini alohida ta'kidladi. "Markaziy Osiyo davlatlari bilan qo'shma sayyohlik yo'nalishlarini yaratish masalalari diqqat markazida bo'ladi", dedi Prezident.

Muxtasar aytganda, ushbu nufuzli xalqaro anjumaning Samarqandda o'tkazilishi va unda O'zbekiston tashabbuslarining e'lon qilinishi, shubhasiz, mamlakatimizning xalqaro obro'-nufuzini mustahkamlashga va pirovardida, xalqimiz farovonligini oshirishga qaratilgan. Endigi vazifa ushbu tashabbuslarni hayotga ichkilik bilan tatbiq etishdan iborat. Bu, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlari, xususan, ijro hokimiyatidan barcha imkoniyatni safarbar qilishni, deputatlardan esa bu borada deputatlik va parlament nazoratining ta'sirchan mexanizmlarini kuchaytirishni taqozo etadi.

Qodir JO'RAYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

21-oktabr — O'zbek tili bayrami kuni

AZALIY SUYUK, ABADIY BUYUK

Bugun mamlakatimizda o'zbek tilining "davlat tili" degan oliy rutbasiga va uning yanada mustahkamlanishiga munosib muntazam va muhtasham ishlar olib borilmoqda. Bu ko'lamli ishlar, samarador sa'y-harakatlarning zimnu zamini, asl hadafi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 21-oktabrdagi o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ta'kidlangan quyidagi va aslo eskirmaydigan cho'ng haqiqatning tabiiy taqozosidir: "Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir... Ona tilimiz milliy ma'naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog'idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir".



tilshunosligida anchayin barqarorlashib borayotgan antropotsentrik yondashuvga ko'ra, insonning tafakkuri, tashqi dunyoni idrok etishi bevosita til bilan bog'liq. Bunday qarash olmon olimi V. Gumboldning quyidagi gaplarida yanada aniq ifodalangan: "Tillar nafaqat bilingan haqiqatlarni ifodalash vositasi, balki ilgari bilinmagan haqiqatlarni ochish vositasi hamdir. Tillar o'rtasidagi farq faqat tovushlar va belgilarning turlichaligida emas, balki dunyoni ko'rishning farqliligi bilan ham bog'liqdir".

Shular e'tiborga olinsa, qanday obyektning o'rganishidan qat'i nazar, fanning, fan tilining milliylikdan, milliy tafakkurdan tamoman mosuvo bir hodisa sifatida talqin qilinishi uchun olimlari ayni shu nuqtaiy nazardan ko'pdan beri tanqid qilishadi. Masalan, ingliz olimi A. G. Seys 1900-yilda "Agar Aristotel meksikalik bo'lganida edi, uning mantiq sistemasi butunlay boshqacha shaklini olgan bo'lardi" deb yozgan. Olmon olimi F. Mautner esa 1902-yilda bu fikrni yana ham keskin tarzda aytgan: "Aristotelning butun mantiqi (logikasi) yunon grammatikasiga muayyan bir nuqtaiy nazardan qarashda boshqacha narsa emas. Agar Aristotel xitoycha yoki dakota hindulari tilida gapirganida edi, muqarrar ravishda boshqacha mantiq tizimini yaratgan bo'lardi".

Rus tilining mashhur izohli lug'atini yaratgan Vladimir Dalning, otasi daniyalik, onasi esa olmon ayoli bo'lgan atqoli olimning mana bu e'tirofi diqqatga sazovor: "Na mayl-istak, na diniy ishonch, na ajdodlar qoni insonning u yoki bu xalqqa mansubligini tayin etadi... Kim qaysi tilda o'ylasa, u o'sha

xalqqa mansubdir. Men rus tilida o'ylayman". Haqiqat shuki, til millatning tamolini tayin etadigan, aqliy-ruhiy iligini sog'lom saqlaydigan, asrlardan-asrlarga to'z'g'itmay olib o'tadigan, hamisha tamaddun otlig' arshning oliy pillapoyalarga olib chiqadigan qiyosiz qudratidir. Umuman, inson degan maqomning bosh tayanchi ham aynan tildir. Ulug' bobokalonimiz Alisher Navoiyning "So'z ayladi insonni judo hayvondin, Bilki guhari sharifroq yo'q ondin" degan hikmatangiz baytida ana shu azaliy haqiqat raso va beqiyos bir

"Til — millat degan bikir birlik-butunlikning azaliy tamal toshidir, uning boy berilishi millatning ham boy berilishi bilan barobar. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, bugun Yer yuzida 6909 ta, yaxlitlab aytganda, yetti mingga yaqin tillar bor. Bu tillarning har biri tegishli millat yoki qavmning borligi, birligi va butunligidan iborat boqiy baxtining bukilmas taxti, tamoman o'ziga xos tafakkur va taxayyul intizomining tarhi, o'zganad qarzga olmagun izchil idrok tarzidir. Odamni, olamni va Allohni tanimoqda y mashaqqatli ham shu tildir."

tarzda o'z ifodasini topgan.

O'zbek tili bu ko'hnaga kurrai zamindagi eng boy va qadimiy tillardan biri, uning ildizlari benihoya baquvvat, ifoda imkoniyatlari sarhadis, ajdodlarimizning dunyo adabiyoti va madaniyatining to'rida qo'r to'kib turgan benazir so'z durdonalari buning xolis shahodatidir. Bu tilda so'zlashuvchilar miqdori kundan-kun ortib, o'zbek tilining haqiqiy muhoblari, chinakam do'stlari safi tobora to'lg'inlashib bormoqda — qariyb ellik million kishi bu tildan foydalanmoqda. Shavkatli yangi O'zbekistonimizda o'zbek tili davlat tiliday zalvarli maqomi bilan tabiiy va qonuniy taraqqiyotga yo'l olib borib bormoqda.

Mamlakatimizda, hech bir istisnosiz, barcha soha va jabhalarda takomilu rivojday muntazam muddao-maqsadni ko'zlagan behad ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqdaki, ularning natijalari barchamizning ko'zimiz o'ngida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'tgan yilning 20-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida mamlakatimizda erishilgan yutuqlarni sarhisob qilib, keyingi yilda qilinajak ishlarining aniq tarhini batafsil chizib berdi.

Davlatimiz rahbari 2023-yilni yurtimizda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nom berish taklifini aytar ekan, bu taklifning boisini shunday izohladi: "Biz O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta'minlashni ustuvor vazifa etib belgiladik. Bu siyosat bir yil bilan cheklanib qolmasligi, doimo bardavom bo'lishi barchamizga ayon". Prezidentimiz qaysi bir dolzarb muammo haqida gapirmasin, albatta, tilimiz ravnaqiga ham alohida diqqatimizni qaratadi, mazkur Murojaatnomada ham "milliy o'zligimiz timsoli, ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilimizga e'tibor yanada kuchaytirilishi"ni alohida ta'kidlagan edi.

Ana shunday muntazam va muhtasham e'tibor boisi til ilmi, til ta'limi, tilning amaliy jihatlari dardlar ishlari ko'lamli kengayib, yurtimiz tilshunoslari tomonidan davr talabiga muvofiq ko'plab ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy tadqiqotlar, dolzarb ishlanmalar yaratilmoqda. O'zbek tilining mustaqillik davridagi

E'tirof etish joizki, bizda lug'atchilik an'analarning ildizlari behad qadim va baquvvat. Albatta, lug'atlarning barcha turi til taraqqiyoti va muhofazasida muhim, ammo ular orasida izohli lug'atlarning o'rni va ahamiyati favqulodda o'zgachadir. Izohli lug'atlarni har qanday tilning bosh lug'ati deyish mumkin, chunki ular da so'z ma'nosining tavsifi bilan bir qatorda so'zning kelib chiqishi, to'g'ri yozilishi, tarqalishi, uslubiy nozikliklari, fonetik-ma'naviy tadriji, o'z yoki boshqa tillardan o'zlashganligi, hududiy mansubligi kabi jihatlarga dardlar ma'lumotlar ham o'rni bilan joy oladi. Ayni chog'da tildan to'g'ri va maqsadga tamomila muvofiq foydalanishda, matn mazmunini to'la va teran anglashda, lug'atlarning, xususan, izohli lug'atlarning o'rni beqiyosdir. Buning ustiga, ayniqsa, izohli lug'atlar tilning taraqqiyot darajasini ham tugul tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham izohli lug'atning dunyo lug'atchiligidagi salmog'i ayriyachidir. Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti buyurtmasi asosida O'zbek tilini rivojlantirish jam'armasi mablag'lari hisobidan nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" qadim va boy tilimizning ko'rkli xazinasining ko'zgusi sifatida uning rivoju kamoloti uchun xizmat qiladi.

O'zbek lug'atchiligidagi muhim ishlardan yana biri — shu yil nashrdan chiqqan ikki jildli "O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati"dir. Unda o'zbek tilidagi sinonimlarning leksikografik izohlari, sinonimik qatoridagi so'zlarning ma'no nozikliklari, ma'naviy farqlanishlari dalillovchi, ijobiy-salbiy bahosi hamda uslubiy o'ziga xosliklarini ko'rsatuvchi misollar berilgan. Til zanginligi va ranginligining chin ko'zgu bo'lmish sinonimlar bugungi tilshunoslikdagi peshqadam qarashlar asosida izohlangan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan "So'z sandiqchasi" nomli izohli lug'atga, "O'zbek tilining katta izohli lug'ati", "Ish yuritish" amaliy qo'llanmasi va yana boshqa ko'plab kitoblar davlat til siyosatini amalga oshirishga ko'maklashishini ta'kidlash mumkin. Davlatimiz rahbarining iborasi bilan aytganda, "globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalar o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo'llanishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib turibdi". Bu dolzarb vazifalarni bajarishda mamlakatimiz filologlari, xususan, tilshunoslari Prezidentimizning bu boradagi sa'y-harakatlari, ko'rsatmalarini benihoya qadrlagan holda faollik ko'rsatadi, tilimiz ravnaqi yo'lidagi ilmiy izlanishlarini yanada kuchaytiradi. Zotan, azaliy suyuk, abadiy buyuk tilimizga chin e'tiqod va muntazam mas'ullik shuni taqozo etadi.

Nizomiddin MAHMUDOV, O'ZFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori, filologiya fanlari doktori, professor.

Tibbiyot

DAVOLASHNING INNOVATSION USULLARI

Navoiy shahrida "Yirik bo'g'imlar jarohatlari va ortopedik kasalliklarni davolashning innovatsion usullarini tatbiq qilish istiqbollari" mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi.



Sog'liqni saqlash vazirligi, Respublika ixtisoslashtirilgan ortopediya va travmatologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi hamda Navoiy viloyati hokimligi hamkorligida o'tkazilgan anjumanda yurtimizning tanliq shifokor-mutaxassislari hamda yigirmaga yaqin davlatlardan olimlar qatnashdi. Dastlab ishtirokchilar bugungi kunda jahon travmatologiya va ortopediya foydalanayotgan tibbiy texnologiyalar ko'rgazmasi bilan tashnadi.

Shundan so'ng bo'lib o'tgan yalpi majlisda travmatologiya va ortopediya sohasining dolzarb muammolari — tayanch-harakat a'zolari jarohatlarining oldini olish, tashxislash va davolash, osteosintezning yangi zamonaviy usullari, yirik bo'g'imlarning artroskopiyasi va endoprotezlash, umurtqa jarrohligi, bolalar travmatologiyasi hamda ortopediyasi masalalariga bag'ishlangan ma'ruzalar tinglandi.

— Bugungi kunda umurtqa pog'onasi va katta bo'g'imlar

jarrohligidagi kaminvaziy texnologiyalarni tatbiq etish o'ta muhim hisoblanadi, — deydi Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori Murodjon Ibratov. — Boisi umurtqa pog'onasi hamda katta bo'g'imlardagi endoskopik jarrohlik amaliyoti bemorlarni muqim sharoitda davolash muddatining qisqarishini ta'minlab, eng qisqa muddat (5-6 kunda) mehnatga layoqatlikning tiklanishiga olib keladi.

Anjuman seksiyalarga bo'lingan holda o'z ishini davom ettirdi. Ularda yuzdan ortiq mavzularda ma'ruzalar tinglanib, umurtqa pog'onasi jarrohligi va artroskopiya bo'yicha mahorat darslari o'tkazildi.

Muhokamalar yakunida travmatologiya-ortopediya tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va ularning amaliy natijalari umumlashtirilib, sohani yanada rivojlantirishning galdagi istiqbolli yo'nalishlari belgilab olindi.

Temur ESHBOYEV ("Xalq so'zi").

Faxr

MASHAQQATLI MEHNATNING XALQARO E'TIROFI

Namanganda qimmatbaho metallar va toshlarni xarid qilish, qayta ishlash va boshqa zargarlik faoliyat turlariga yo'naltirilgan "Gavhar Jewel Group" mas'uliyati cheklangan jamiyatining ish boshlaganiga endigina ikki yil bo'ldi.

Ellik kishi doimiy asosda mehnat qilayotgan ushbu korxonada 150 dan ortiq mahalliy zargarlar bilan kooperatsiya tartibida ish olib borilayotir. Bu orada nozik hunar egalari tashqi bozorga ham chiqib ulgurdi, tayyorlangan mahsulotning yigirma foizi eksport qilinmoqda.

"Gavhar Jewel Group" o'tgan yili Buxoroda tashkil etilgan xalqaro zardo'zlik va zargarlik festivalida muvaffaqiyatli qatnashib, "Eng yaxshi zargarlik korxonasi" nominatsiyasi bo'yicha faxrli birinchi o'ringa sazovor bo'lgan edi.

Ya'qinda Dubay shahrida uyushtirilgan "International GEM & Jewellery Show" xalqaro zargarlik ko'rgazmasida ilk bor o'zbekistonlik tadbirkor dunyo zargarlik sanoati rivojiga qo'shgan beqiyos hisssasi uchun taqdirlandi. MCHJ rahbari, "Gavhar" brendi asoschisi Azizbek Abdurasulovga "Global Icon" mukofoti tantanali ravishda topshirildi.

— Xalqaro ekspertlar



talqiniga ko'ra, joriy yil dunyo zargarlik sanoatining muhim vakillaridan biri sifatida e'tirof etilishimiz jamoamizga alohida faxr bag'ishlaydi, — deydi "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni sohibi A. Abdurasulov. Ma'lumot uchun, qimmatbaho toshlar va zargarlik buyumlari eksportini qo'llab-quvvatlash kengashi (GJPEC) 1966-yildan buyon faoliyat yuritadi hamda olmoslar bozorida yuqori mavqega ega tashkilot hisoblanadi.

Qudratilla NAJMIDDINOV ("Xalq so'zi").

O'ZBEK TILI BAYRAMI TURKIYADA KENG NISHONLANMOQDA

21-oktabr — O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan O'zbekistonning Turkiyadagi elchixonasi qoshida faoliyat ko'rsatadigan "O'zbek tilining do'stlari" klubi, Turkiya oliy ta'lim muassasalari hamda mamlakatimiz ilmiy-adabiy jamoatchiligi vakillari ishtirokida qator tadbirlar tashkil etilmoqda.

Biz va jahon

Ana shulardan biri Anqara Yildirim Boyazid universiteti bilan o'zaro hamkorlikda uyushtirildi. Bu safar o'zbek adibi Chori Avazning yaqinda turk tiliga tarjima qilingan "Aydinlik Hayaller" kitobining taqdimoti bo'lib o'tdi.

Adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov, Anqara Yildirim Boyazid universiteti professori Aktach Aydin, Turkiya radio va televideniye oliy kengashi eksperti, doktor Ahmed Akalin, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Shahlo Hojiyeva, "Favvora film" kinostudiyasi rahbari Keldiyor Xo'jayorov, Yozuvchilar

uyushmasi a'zolari Ozoda Bekmurodova, Zebo Omonova qatnashgan ushbu tadbirda so'nggi yillarda o'zbek tilining obro'-e'tiborini oshirish, uning xalqaro miqyosdagi o'rni ni yuksaltirish, jumladan, Turkiyada o'zbek tili o'rganishga imkoniyatlar yaratish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar haqida atroficha fikr yuritildi.

Adiblarimiz asarlarining turk tiliga o'girilishi ham o'zbek tili va adabiyotiga bo'lgan katta qiziqishdan dalolat berishi qayd etildi. Taqdimot marosimi ishtirokchilariga Chori Avazning hayoti va ijodi haqida atroficha ma'lumot berildi. Universitetning tilshunoslik yo'nalishi talabalari ishtirokida mushoira tashkil etilib, o'zbek

shoirining she'rlaridan namunalar o'qildi.

Tadbirdan so'ng o'zbekistonlik professor Nurboy Jabborov va turk navoiyshunos olimi Funda Toprak ishtirokida Anqara Yildirim Boyazid universiteti talabalariga o'zbek tiliga bag'ishlangan ochiq dars tashkil etildi.

Xuddi shunday amaliy mashg'ulot Hajettepe universitetida, shuningdek, Turkiyaning Karabuyuk universitetida "O'zbek tilining do'stlari" klubi faollari ishtirokida "Vatandoshlar" jamoat fondi hamda Alisher Navoiy jam'armasi tomonidan taqdim etilgan o'zbek tilidagi kitoblarni topshirish marosimining o'tkazilishi ham rejalashtirilgan.

"Dunyo" AA, Anqara

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1041.32 699 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yubkub olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begmurotov tomonidan sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir Z. Xudoyshukurov.
Musahhih Sh. Mashraboev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 22.45 Topshirildi — 00.30 **1 2 3 4 5 6**

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi